

TIL KORPUSLARINI YARATISH JARAYONIDA AVTOMATLASHTIRISHNI O'RGATISH TAMOYILLARI

Azizbek Kamalov

**Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili kafedrası
o'qituvchisi**

Tayanch so'z va iboralar: avtomatlashtirish, concordance, “elektron” o'qituvchi, multimediya, virtual dastur, **CALL, BASIC**, avtomatizatsiya, kognitiv-intellektual yondashuv, avtomatik korrektorlar, speller, audio va vizual effektlar, interaktiv multimodal kutubxona, virtual ensiklopedia.

Avtomatizatsiya so'zi lotincha “o'zi harakatlanadi” degan ma'noni bildiradi. So'zning ma'nosidan tushunilib turibdiki, tizim o'zi harakatlanishiga asoslangan, turli operatsiyalar bajarishga yo'naltirilgan va shu tamoyilda ishlashiga moslab programmalashtirilgan mexanizmlar yig'indisidir. Hammaga ma'lumki, yirik korporatsiyalarda, aytaylik, avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodlarda avtomatizatsiya tizimi keng yo'lga qo'yilgan. Ushbu tizim optimalligi uchun jamiyatning boshqa sohalariga ham asta-sekinlik bilan tatbiq etilmoqda. Hozirda til o'rgatishning avtomatik tizimlari ishlab chiqilgan. Til o'rgatishning avtomatlashganligi shu bilan izohlanadiki, u maxsus o'quv dasturlari yordamida amalga oshiriladi.

Til o'rgatishda kompyuterdan foydalanish bo'yicha dastlabki tajribalar XX asrning 60-yillarida Stenford (Russian-Program) va Nyu York universitetlarida (Das Deutche Program) o'tkazildi. XX asrning 70-80-yillarida til o'qitishda kompyuterdan foydalanishga bo'lgan qiziqish kuchaydi va hatto alohida yo'nalishning yuzaga kelishiga olib keldi: Computer Assisted Language Learning (CALL). CALL bo'yicha 1-xalqaro konferensiya 1985 yil 12-13 noyabrda

Budapesht shahrida o'tkazildi. 2-xalqaro konferensiya 1989 yil 15-17 noyabrda bo'lib o'tdi. Mazkur konferensiyalarda kompyuter yordamida xorijiy tillarni o'rgatishning yangi metodlari taklif etildi, o'qituvchi lingvistik avtomatlar xususida qimmatli mulohazalar o'rta tashlandi, o'qitishda audio va video vositalardan foydalanish samarali ekanligi ta'kidlandi.

O'qituvchi lingvistik avtomatlardan foydalanishda 2 xil yondashuv mavjud:

- 1) bixevioristik yondashuv – mavjud an'anaviy o'qitish tizimining barcha jabhalarini e'tiborga oluvchi o'qitish mexanizmlari, bunda grammatikaning ma'lum bo'limi tugagandan so'ng, uni topshiriqlar asosida baholash, shuningdek, leksik minimumlar bo'yicha bilimni nazorat qilishga yo'naltirilgan dasturiy ta'minotga asoslangan o'qitish tizimi. Bunda bixeviorizmning “stimul-reaksiya-mustahkamlash” formulasiga asoslaniladi. O'qitish usullari “stimul” (turtki) vazifasini bajaradi, o'rganuvchi bundan ta'sirlanadi va bilimni mustahkamlaydi.
- 2) kognitiv-intellektual yondashuv – CALL (CALL Software) uchun universal dasturiy ta'minotlar yaratish, o'qitish tizimini lug'at bazasi, grammatika bo'yicha qo'llanmalar, tizimni avtomatik korrektorlar, speller bilan ta'minlash, audio va vizual effektlar bilan boyitish kabi amaliy ishlar majmuidir.

Tillarni avtomatik o'qitish tizimi hisoblangan kompyuter lingvodidaktikasida quyidagi turdagi topshiriqlardan foydalaniladi:

- a) Close the gap – Bo'sh kataklarni to'ldiring topshirig'i. Bunda semantika + grammatika sohalarini o'rganish ko'zda tutiladi;
- b) krossvordlar va leksik o'yinlar;
- c) elektron pochtaidan foydalanib bajariladigan mashq (turli xatlar yoki elektron hikoyalar tuzish asosida - maze) word-hunting;
- d) matnlarning avtomatik tarjimasi va tahriri bo'yicha mashqlar;
- e) grammatikaning turli bo'limlari bo'yicha diagnostik testlar o'tkazish;
- f) CD-ROMda standart o'qitish kurslaridan foydalanish.

Ingliz tilini o'rgatishga mo'ljallangan quyidagi oquv dastrulari mavjud: TOEFL tizimi – ingliz tilini avtomatik o'qitishga mo'ljallangan eng rivojlangan xalqaro dastur. U

dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida amal qiladi, u inglizcha Test Of English as a Foreign Language so'zlarining qisqartmasi bo'lib, ingliz tilidan xorijiy til sifatida sinov standarti hisoblanadi. Bu tizim ingliz tilini o'rgatish bilan birgalikda o'zlashtirilgan bilimlarni diagnostika qila olish imkoniyatiga ham ega. IELTS – TOEFL tizimiga o'xshaydigan avtomatik til o'rgatish va bilimlarni diagnostika qilish tizimi. U grammatika, lug'at, o'qib va eshitib tushunish, to'g'ri jumla qurish kabilar yuzasidan bilimlarni baholaydi. ENGLISH FOR ALL (Hamma uchun ingliz tili) – O'zbekistonda yaratilgan avtomatik o'qitishga asoslangan o'quv dasturi. Unda o'quvchiga ingliz tilidagi tovushlar va ularning talaffuzi audio effektlar yordamida tushuntiriladi, qisqacha ingliz tili grammatikasi bayon etiladi, mashqlar va testlar yordamida bilimni tekshiradi. Ushbu o'quv dasturining afzal tomoni shundaki, unda o'qitish tizimi video effektlar bilan ham boyitilgan, ingliz tilida multfilmlar kiritilgan va inglizcha qo'shiqlar karaoke bilan ta'minlangan

WAY TO PERFECTNESS (Mukammallik uchun yo'l) – ingliz tilini avtomatik tarzda o'qitishga mo'ljallangan o'quv dasturi bo'lib, bunda ham multimedia bilan ta'minlangan. Ushbu dasturning yuqoridagilardan farqli tomoni shundaki, unda dastur “elektron” (“virtual”) o'qituvchi bilan ta'minlangan

REWARD – bir necha yil davomida o'qitishga mo'ljallangan til o'rgatish tizimi. PROFESSOR HIGGINS - АНГЛИЙСКИЙ БЕЗ АКЦЕНТА - fonetik trenirovka, ingliz tilida aksentsiz talaffuz me'yorlarini o'rgatuvchi tizim. REPETITOR ENGLISH - Moskvadagi ingliz tilini o'rgatuvchi xalqaro markaz tashabbusi bilan yaratilgan. Mazkur tizim ingliz tilini turli xil zamonaviy metodlar va elektron metodik ishlanmalar paketi yordamida avtomatik tarzda o'rgatishga mo'ljallangan.

EURO PLUS – uch yil davomida ingliz tilini bosqichma-bosqich (Elementary, Intermediate, Upper intermediate, Advanced English) tizimli tarzda o'rgatishga asoslangan avtomatik o'qitish tizimi. Bugungi kunda o'qitishni

kompyuterlashtirish nazariyasini ishlab chiqish, haqiqatan ham, o'quv faoliyatining samaradorligini oshiradigan, o'rganilayotgan mavzuga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqishni shakllantiradigan ta'limiyelektron ishlanmalarni yaratishning umumiy va xususiy mezonlarini belgilash zarurati paydo bo'ldi. Hozirgi paytda Rossiya, Fransiya, Yaponiya, Kanada va boshqa mamlakatlarda ta'limiy-elektron ishlanmalarni yaratish konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borilmoqda. Konsepsiyada ishlanmalarning mohiyati, ularni yaratish, tekshirish va qo'llash tartibi belgilanadi. Mutaxassislarning fikricha, ta'limiy-elektron ishlanmalar asosan texnik, pedagogik, metodik talablarga javob berishi zarur. Ular shunday talablarga mos kelsagina, ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin. Til o'qitishning avtomatik tizimi yildan yilga rivojlanib yangi effektlar bilan boyib bormoqda. Bu tizimni yanada rivojlantirish, kompyuter lingvodidaktikasini yangi dastruriy ta'minotlar va pedagogik texnologiya, bilimlar diagnostikasi bilan boyitish kompyuter lingvistikasi fanining dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Adabiyotlar

1. Abdullayev Y. Statistika nazariyasi. – Toshkent, 2002.
2. Анисимов А.В. Компьютерная лингвистика для всех: Мифы. Алгоритмы. Язык. – Киев: Наукова думка, 1991.
3. Norov, I., & Uldawlet, D. (2021). Psychological mechanisms that increase the effectiveness of the educational process.
4. Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. – М.: Просвещение, 1966. 4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1966
5. Ибрагимов, А. Т. (2015). Влияние экологических факторов при занятиях физической культурой и спортом. Молодой ученый, (11), 1884-1885.

6. Раджапов, У. Р., & Мирахмедов, Ф. Т. (2018). Строго регламентированные методы при обучении движениям и воспитании физических качеств. Молодой ученый, (5), 185-187.

QORAQALPOQ ETNOMADANIYATI ASOSIDA O'QUVCHILARNI ESTETIK TARAFDAN TARBIYALASH

Bekbosinov Dinmuhammed

Nukus davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqi madaniyati va siyosiy hayoti haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, siyosiy hayot, qoraqalpoq, tarix, adabiyot, urf-odatlar,

Qoraqalpoq xalqi katta va boy tariga ega xalqlar sirasiga ega. Qoraqalpog'iston noyob va boy madaniy merosga ega. Bu uning qadimiy tarixi, boy va unumdor yerlari, tarixiy qazilmalari va yodgorliklarida o'z aksini topgan. Bundan tashqari qoraqalpoq xalqining xalq og'zaki ijodi ham madaniy meroslarining eng katta qismini tashkil qiladi. Og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan dostonlarida vatanparvarlik, vatanni sevish, o'zi tug'ilib o'sgan tuproqni asrab avaylash, ota-onaga hurmat va oilaga sadoqat kabi tushunchalar o'z ifodasini topgan. Bunday g'oyalar e'tirof etilgan asarlarning mualliflari esa xonliklar davrida chuqur iztirobga tushgan, azob uqubatlarni tortgan xalq vakillari edi. Ular sirasiga Ajiniyoz, Berdaq, Kunxo'ja kabi adabiyot namayondalarini kiritishimiz mumkin. Bu shoirlarning asarlarida va o'sha davrda ijod qilgan jirovlarning